

Qalandarov Umidbek Ravshanbekovich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi

Xorazm viloyat filiali

Kadrlar ma'muriyatchiligi bosh inspektori

Annotatsiya: Ushbu maqolada rahbar imidjini shakllantirishning psixologik jihatlarini o'rganish borasidagi ilmiy nazariy yondashuvlar talqin qilingan.

Kalit so'zlar: Rahbar, imidj, xodim, faoliyat, qobiliyat, boshqaruv, shaxs, jamoa, axloqiylik, verbal, kinetik, vizual.

Аннотация: В этой статье изложены научные теоретические подходы по изучению психологических аспектов формирования имиджа руководителя.

Ключевые слова: Руководитель, имидж, работник, деятельность, умение, управление, личность, команда, нравственность, вербаль, кинетика, визуальная.

Annotation: This article sets out scientific theoretical approaches to the study of the psychological aspects of the formation of the image of a leader.

Keywords: Manager, image, employee, activity, skill, management, personality, team, morality, verbal, kinetics, visual.

Bugungi kunda buyuk yuksalishning murakkab yo'llaridan dadil odimlayotgan bizning davlatimizda rahbar kadrlar tayyorlash siyosati birinchi o'ringa chiqdi. Istiqloq yillarida yurtimizda barcha sohalarining chuqur isloh qilinishi esa yangicha fikrlaydigan rahbar kadrlarga bo'lgan ehtiyojni yanada orttirib yuboradi.

Yana bir muhim jihat, rahbar imidji qanday bo'lishi kerak? Avvalo, imidj atamasiga e'tibor qaratamiz. Imidj – (ing. imij – qiyofa, tasvir) odamlar ongida muayyan shaxs, tashkilot yoki boshqa ijtimoiy ob'ektga nisbatan yuzaga keluvchi, idrok etilayotgan ob'ekt haqidagi axborotni o'zida mujassamlashtirgan va ijtimoiy xulq-atvorga da'vat etadigan muayyan sintetik obraz. Zamonaviy rahbar imidjini yaratish – bu uning yuzi, kiyinishi, qalbi, sog'lom fikri, muomala madaniyati, boshqaruvchilik san'atini mukammal egallaganligi, kompetentlik: bilimi, tafakkuri, kasbiy mahorati, farosati, kamtar, xushmuomalalik kabi insoniy fazilatlar, go'zallik, axloqiylik, o'git va ibrat, ustoz va shogird an'analariga tayangan holda insonning nufuzini ko'tarish, obro'yini oshirish, hurmatga sazovor bo'lishidir.

Zamonaviy rahbar imidjini yaratish – bu uning yuzi, kiyinishi, qalbi, sog'lom fikri, muomala madaniyati, boshqaruvchilik san'atini mukammal egallovchi shaxs, kompetentlik: bilimi, tafakkuri, kasbiy mahorati, farosati, kamtar, xushmuomalali kabi insoniy fazilatlar, go'zallik, axloqiylik, o'git va ibrat, ustoz va shogird an'analariga tayangan holda insonning nufuzini ko'tarish, obro'yini oshirish, hurmatga sazovor bo'lishdir. Vositalari: verbal, kinestetik, vizual.

Ma'lumki, har bir rahbar o'zining mexnat faoliyatida mumkin qadar sipo, axloqli, tarbiyali, bilimli va boshqa ijobiy sifatlarini namoyon qilishga xarakat qiladi. Bu ko'p hollarda ayni shunday kechishi bilan bir vaqtning o'zida xodimlar orasida noto'liq obrazning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, rahbar avtoritar yo'nalishda ishlab o'rgangan bo'lib, yon-atrofiga o'ziga eng yaqin muovin va yordamchilardan boshqalarni yaqinlashtirmagan hollarda noxush ko'rinishlar oladi. Ya'ni, ushbu rahbar xaqida jamoada ikki, uch yoki undan ham ko'prok fikrlar yuradi. Birov o'ta tarbiyali desa, boshqasi qo'pol yoki johil deyishi mumkin. Aslini olganda, o'zi atrofida bu xildagi mish-mishlarning tarqalishlariga sababchi, bunday holatni yoktiradigan shaxslar ichki chuqur madaniyat soxiblari bo'lishmaydi. Shunday ekan, madaniyatli, o'ta tarbiyali inson, rahbar deganda biz kanday asoslarga tayanishimiz lozim. Bu o'rinda inson madaniyati asoslari yotadi. Rahbar madaniyati deganimizda esa nafaqat inson madaniyati, butunjaxon insoniy qadriyatlar bilimdoni va ularni o'z xayotiy faoliyatida amalda qo'llovchi va bir vaktning o'zida o'z kasbi, lavozimiga taalluqli axloqiy va amaliy ma'lumotlarga ega, ularni o'z faoliyatida qo'llaydigan kishini tushunamiz.

Shuning uchun ham jahon psixologiyasi, to'plagan nazariy va amaliy ma'lumotlarga ko'ra, haqiqiy insoniylik fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan, fuqarolik burchini, Vatan tuyg'usini chuqur his etadigan, yuksak axloqiy salohiyatlarga ega bo'lgan qobiliyatli rahbar shaxsini tarbiyalash zamon talabiga aylanmoqda. Milliy va istiqlol mafkurasi bilan qurollangan, yangi tipdagi yuqori malakali rahbar xodimlar avlodini tarbiyalashda psixologiya fani mas'uliyatini oshirish, ularning ruhiy olamida siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy tashkilotchilik, tashabbuskorlik faoliyatlarini o'zaro muvofiqlashtirish, rahbarlikning mukammal tizimini vujudga keltirish vazifalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu urinda rahbarning tashkilotchilik qobiliyati, ma'naviy madaniyatining mohiyati va psixologik xususiyatlari haqida ham kengroq fikr yuritish o'rinli bo'ladi. Rahbarning ma'naviy madaniyati nima? Ushbu savolga bir suz bilan shunday javob berish mumkin: «ma'naviy madaniyat - rahbarda shakllangan (ichki) ruxiy quvvatdir».

Endi bevosita zamonaviy rahbarning imidji turlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

1. Korporativ imij (kompaniya, firma, korxonona, muassasa, siyosiy partiya, jamoat tashkiloti va hokazolarning imiji);

Ob'ektiv – sub'ektiv. Bu tashkilot (korxonona, korporatsiya) faoliyatining sirtidagi ko'rinishlari sifatida tushuniladi. Bunda tashkilot (korxonona, korporatsiya) mahsuloti, xodimlarining uniformasi va xulq-atvor uslubi, korporatsiya doirasidagi munosabatlar kiradi.

Tabiiy – sun'iy. Tashkilot imijini ikki xil usul yordamida yaratish mumkin. Birinchisi, kompaniya tovarlarini xarid qilish, xizmatlaridan foydalanish. Ikkinchisi, o'ziga vazifa "yuklash" xususiyatlariga qaratilgan.

Kognitiv – emottsional. Tashkilot imiji xayoliy obrazlar va ruhiy komponentlar yig'indisi sifatida tavsiflanadi. Xayoliy obrazlarga kognitiv jarayon tavsiflari, ya'ni eshitish va ko'rish orqali axborot olinganidan so'ng yaratiladigan obrazlar vositasida fikrlash tizimlari kiradi. Imijning emotsional jihatlariga ayni holda assotsiatsiyalar, sezgilar, ruhiy holatning shaxsiy xususiyatlari, sharoit ta'siri va hokazolar kiritiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki kuchli demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan iborat strategik yo'l davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi, yangicha fikrlaydigan malakali rahbarlarni tayyorlashni nazarda tutadi. Bu tezkor dunyoda yashayotgan yoshlar guruhi borki, ularning har birida o'ziga xos iqtidor va salohiyatni ko'rish mumkin. Bu xususiyatlar orqali insonning jamiyatdagi o'rni va mavqei belgilanadi. Lekin hamma ham jamiyatda o'z iqtidorini namoyish etolmaydi. Ba'zi yoshlar o'zlari xoxlashmasa, ayrimlar bunga imkoniyat topolmaydi. Demak, ana shunday, shijoatli yoshlarni topib, ularni to'g'ri yo'lga yunaltirish, o'z qobiliyatlarini namoyon eta olishlariga imkoniyat yaratib berish muhim masalalar sirasiga kiradi. Zero bugun xayrixohlikka, ko'makka muhtoj yoshlarimiz ertaga davlatimizning asosiy suyanchi va rahbar sifatida tayanchi bo'loladi. Bunda rahbarning vazifasi esa boshqaruvning ijtimoiy faoli sifatida, jamiyatning, umuman jaxon sivilizatsiyasining yutuqlarini o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Xuddi shu boisdan inson shaxsi, uning kamoloti, unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi psixologik omillar ta'siri, tajriba va intilishning roli masalasi XXI asrda ham tadqiq etishga muhtojdir.

Xulosa. Rahbar shaxsini o'rganish masalasi bilan nafaqat psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, siyosatshunoslik, tarix kabi ijtimoiy gumanitar fanlar shug'ullanadi. Hozirgi davrda rahbar muammosi aniq, gumanitar ijtimoiy fanlarning umumiy tadqiqod obyektiga aylanib bormoqda va bu jarayon keyingi asrda yanada jadallashadi. Rahbar imidjini yaratishda esa bu bilimlarning o'rni benihoyat kattadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umumiy psixologiya. 1-kitob (E.G'oziyev) T.2002 y.
2. Маматкулова Ф. «Тафаккур» журнали, 2006 йил, 1-сон, 115-бет.
3. Ёулдошев Махмуд, Назарзода, Нодир. "Рахбарлик психологиясида ахлоқ". - Т.: "Sharq", 2010. - 192 б.
4. Нарзулла Боймуродов «Рахбар психологияси». «Янги аср авлоди», 2007 йил.